



## Ug'bek Hamdamning " Muvozanat " romani g'oyaviy- badiiy tahlili

**Oripova Feruza**

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti  
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda inson ruhiyati, ma'naviy izlanish, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar hamda shaxs va jamiyat munosabati masalalari yoritilgan. Muvozanat tushunchasining ramziy mohiyati, qahramonlar ruhiy olami va kompozitsion qurilish xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Roman mustaqillik davri o'zbek adabiyotining muhim namunasi.

**Kalit so'zlar:** muvozanat, ma'naviyat, ruhiy tahlil, zamonaviy roman, badiiy tasvir, ichki monolog, qadriyat.

### **Kirish**

Roman (fransuzcha: roman) – nasriy asar janri; muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanish va kamol topish jarayoni badiiy makon va zamonda tasvirlangan asar. Romanda o'rta asrlarda roman tillaritsa yozilgan har qanday asar janrini anglatgan. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan ma'lum ma'noda mustaqil olam sifatida tahlil va talqin etiladi.

### **Natijalar va tahlil**

Ruhni ham, jismni ham ozuqasiz qoldirib bo'lmaydi. Insonda umumiy ikki katta ehtiyoj mavjud. Bular – ma'naviy va moddiy ehtiyoj. Har ikkisinin o'rni, darajasi va ahamiyati hammamizning hayotimizda katta rol o'ynaydi. Ba'zan moddiy ketidan quvib, tirikchilik dardida yurib o'zimizda ma'naviy bo'shliq paydo qilib qo'yamiz. Bu tomondan uzilib qolamiz. Aksi holatda esa ruhiy quvvatimiz bo'lmish ma'naviy ozuqaga sho'ng'ib ketib, moddiy tomondan oqsaymiz. Bu ehtiyojlar ipi uchlarini tutashtirish kishidan katta mehnat talab qiladi. Ikkisi o'rtasidagi muvozanatni ushlab turish har doim ham qo'limizdan kelvermaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Ulug'bek Hamdam o'zining "Muvozanat" asarida ayni shu mavzuni ko'targan. Asardagi mavzu va muammolar asriy masalalardir. Har qachonga, har kimga, har davrga tegishli muammolar. Bosh qahramon Yusuf qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, oltin o'rtaliqni, ya'ni ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatni topa oladi.

Asarni tahlil qilar ekanmiz, bu asarga xatboshi yozib bergan olim, munaqqid, filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronovning fikrlarini chetda qoldirib keta olmaymiz. U asar haqida: "Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani

yoʻzilganiga ham, mana, 20-yil boʻlibdi. Oʻshanda, olis 1997-yilda roman qoʻlyozmasini oʻqirgan, diqqatimni tortgan eng Muhim narsa JURʼAT boʻlgandi”<sup>1</sup> deydi.

Undan tashqari hozirgi oʻzbek romanchiligining yuksak naʼmunasi bolgan bu asarni 20-asarning noyob durdonalari bolgan quyidagi asarlarga tenglashtiradi “Muvozanat” roman janriga qoʻyiluvchi risolaviy talablarga toʻla javob berib, milliy tariximizdagi burilish pallalarini, hayoti shunday pallalarga toʻgʻri kelgan insonlar ruhiyatidagi evrilishlarni keng epik koʻlamda aks ettirilgan "Oʻtkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Lolazor" singari barmoq bilan sanarli asarlar qatordan joy oldi.”<sup>2</sup>

Mustaqillik davri oʻzbek adabiyotida inson ruhiyati va maʼnaviy olamiga eʼtibor kuchaydi. Bu jarayonda Ulugʻbek Hamdam ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. “Muvozanat” romani zamonaviy insonning ichki ziddiyatlari, hayotiy tanlovlari va maʼnaviy tayanch izlash jarayonini aks ettiradi.

Romanning markaziy gʻoyasi — inson hayotidagi moddiy va maʼnaviy qadriyatlar oʻrtasidagi muvozanatni topish masalasidir. Asarda muvozanat tushunchasi ramziy maʼnoda qoʻllanib, inson ruhiy barqarorligining mezoni sifatida talqin etiladi.

Qahramonlar hayoti orqali yozuvchi jamiyatdagi maʼnaviy boʻshliq, qadriyatlar inqirozi va shaxsning yolgʻizlik hissini ochib beradi. Insonning tashqi muvaffaqiyati uning ichki osoyishtaligini kafolatlamasligi romanning yetakchi falsafiy xulosalaridan biridir. Avvallari, tabiat qonunlariga : quyosh chiqishi, botishi, kun tunga, tun kunga aylanishi, qor, yomgʻir yogʻishi, xullas barcha boʻladigan gʻayriodatiy hodisalarining oʻz oʻrnida oʻz vaqtida sodir boʻlishiga qoyil qolardim. Albatta ajablanmaslikni iloji yoʻq. Almusavvir, Alloh taolo butun dunyoda shunday muvozanat oʻrnatib qoʻyganki , hech bir olim, hech bir ulamo uning yaratilganidan xato topa olmadi. Mana shu muvozanat bor ekan insoniyat yashab kelmoqda asrlar mobaynida. Barchasi juda oddiy misol uchun, tinimsiz yogʻingarchilik boʻlsa, yokida qurgʻoqchilik boʻlsa, yil boʻyi quyosh chiqmasa, yokida, umuman orombaxsh tundan ayrilsak hayot qanday boʻlishini tasavvur qilish qiyin a? Alloh yaratilgan orasidan faqat insonga gina oʻz hayotida muvozanatni oʻrnatish huquqi berilgan. Muvozanatning yoʻqligi dunyo uchun xavf tugʻdirganidek , insonlarni ham mahv etishi muqarrar. Ushbu asarda jism muvozanatiga erisha olmagan (asar oxirida tushunib yetadi va hayoti iziga tushib ketadi) Yusuf va ruhiy muvozanatini yoʻqotib umrini xazon qilgan Amir kabi qahramonlarning zahmatli hayotlari aks ettirilgan. Bundan tashqari koʻplab adashgan qismatlar bayoni keltirilgan. Paygʻambarimiz, Hech qachon oʻlmaydigandek dunyo uchun, ertaga oʻladigandek oxirat uchun yasha. Biri uchun birini qurbon qilma. deb bejiz aytmagan. Yaʼni din ishida ham dunyo ishida ham muvozanatda boʻl.

Asarda qahramonlar ruhiyati chuqur psixologik tahlil asosida yoritilgan. Ichki monolog, tafakkur oqimi va ruhiy kechinmalar tasviri orqali obrazlar jonlantiriladi. Bosh qahramon timsolida zamonaviy insonning ikkilanma holati — moddiy dunyo bilan maʼnaviy ehtiyoj oʻrtasidagi kurash ifodalanadi.

Yozuvchi obrazlarni tashqi harakatdan koʻra ichki drammatizm orqali ochadi. Bu jihat romanga falsafiy-psixologik ruh bagʻishlaydi. Badiiy tasvir vositalari va ramziylik

<sup>1</sup> Hamdam, Ulugʻbek. Muvozanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.

<sup>2</sup> Hamdam, Ulugʻbek. Muvozanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.

Romanda ramz va timsollar muhim o‘rin tutadi. “Muvozanat” bosh ramz sifatida butun asarni birlashtiradi. Yorug‘lik va zulmat, shovqin va sukunat kabi kontrastlar orqali muallif g‘oyani chuqurlashtiradi.

Til sodda va ravon bo‘lishiga qaramay, falsafiy mazmunga boy. Metaforik ifodalar, ichki drammatizm va psixologik tafsilotlar asarning badiiy qimmatini oshiradi.

Xulosa: “Muvozanat” romani insonning o‘zligini anglash, ma’naviy tayanch topish va hayotda ichki uyg‘unlikka erishish masalasini yoritadi. Asar mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida ruhiy-falsafiy yo‘nalishning yorqin namunasidir. Ulug‘bek Hamdam inson qalbini nozik psixologik tahlil asosida ochib bera olgan ijodkordir. Asarni o‘qish davomida miyamda turli xil chigalliklarga duch keldim. Chunki yozuvchi muvozanatsizlik deb hisoblayotgan voqealar mening hayotimdan ham olisda emas. U.Hamdami realist.U hayotni boricha tasvirlaydi.Har birimizning hayotimizda muvozanatsizlik mavjud va bu muvozanatsizlikning yechimi ilm - ma'rifatda ekan. Odatda hech bir o'qigan asarimni tugashidan qoniqmasdim ya'ni mana bu qahramonning taqdiri nma bo'ldi, nega bunday tugadi degan cheksiz savollar bilan qolib ketardim. Bu asar yakunidan esa taskin topdim.Alloh qalbimizdagi taskinni , muvozanatni ilmga jo qilib qo'yibdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hamdam, Ulug‘bek. Muvozanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.
2. Karimov, N. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
3. Yo‘ldoshev, Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. Normatov, U. O‘zbek romanchiligi taraqqiyoti. Toshkent: Fan, 2008.